

### KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

<b>Kredit mahsulotining turi va nomi</b>	<b>Mikrokredit «Mening mahallam»</b>
<b>Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar</b>	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, 18 yoshga to'lgan o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yhatdan o'tgan jismoniy shaxs.
<b>Mikrokredit valyutasi</b>	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
<b>Mikrokredit miqdori</b>	300.0 (uch yuz) mln.so'mgacha
<b>Mikrokredit maqsadi</b>	<p>O'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxsning faoliyatini rivojlantirish maqsadida ajratiladi.</p> <p>Quyidagi faoliyatlar uchun taqdim etilmaydi: Savdo, ummumovqatlanish hamda avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish (<i>bundan "yashil" texnologiyalarni sotib olish va o'rnatish mustasno</i>) yengil va ilgari foydalanishda bo'lgan yuk avtotransport vositalari sotib olish va ularni ta'mirlash (<i>chet eldan olib kelinadigan yuk avtotransport vositalaridan tashqari</i>). Chorvachilik uchun kredit ajratilganda, chorva mollari Veterinariya bo'limi tomonidan identifikatsiya qilingan (birkalash usuli) haqiqatdan yetkazib berilgan hollarda taqdim etiladi.</p>
<b>Mikrokredit muddati</b>	Imtiyozli davrsiz, 36 oy muddatgacha
<b>Taqdim etish shakli</b>	Sotuvchining hisob raqamiga pul ko'chirish yo'li orqali
<b>Foiz stavkasi</b>	<p>12 oy muddatgacha – 26 %;</p> <p>36 oy muddatgacha – 28 %</p> <p>Bunda kredit foizlarining 4 foizdan 6 foizgacha qismi kompensatsiya qilishnishi mumkin (Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJ bilan tuzilgan 27.02.2026 yildagi 1-sonli bosh bitimga asosan)</p>
<b>Mikrokredit ta'minoti</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• Mikrokredit miqdorining 125 foizdan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan likvidli mol-mulk garovi.</li></ul> <p><b>Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Ajratiladigan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorda qo'shimcha ravishda qabul qilinadi.</li></ul>
<b>Talab etiladigan hujjatlar</b>	<p>A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.);</p> <p>B) O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma;</p> <p>C) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar;</p> <p>D) Garov qiymatini aniqlash uchun - mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti yoki real vaqt rejimida bozor qiymatini aniqlaydigan konsalting kompaniyasining dasturiy ta'minotidan foydalanish mumkin;</p>

	<p>E) Bankning kredit menejeri (mas'ul xodimlari) tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto suratlari bilan;</p> <p>F) Birgalikda qarz oluvchi/Kafilning ma'lumotlari (talab etilgan hollarda);</p> <p>G) Ijtimoiy soliq to'layotganligini tasdiqlovchi hujjat (yoki ma'lumotnoma);</p> <p>H) Mikrokredit ajratish bo'yicha tegishli hokim yordamchisining tasdiqlangan ijobiy tavsiyanomasi talab etiladi;</p> <p>I) Mahsulot yetkazib berish/xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma;</p> <p>J) Zaruriyat bo'lgan hollarda, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xujjatlar.</p>
<b>Mikrokreditni qaytarish tartibi</b>	Mikrokredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to'lov usulida amalga oshiriladi.
<b>Qo'shimcha shartlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi.</li> </ul>